

SOVET DAVRI MAFKURASINING TARIXSHUNOSLIGIMIZDA TUTGAN O'RNI

Mirzayev Jahongir Sotimboy o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti,
Tarix yo'nalishi 402-guruh talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada Sovet davri tarixshunosligi borasida olib borilgan ilmiy ishlar, ularning tarix va tarixshunoslikdagi ahamiyati, o'sha davr mafkurasi bilan yozilgan asarlarning tarixiy talqini va ularning bugungi kunda tariximizni o'rganishda qay darajada ahamiyat kasb etishi kabi masalalarga e'tibor beriladi .

Kirish. Tarixshunoslik – bu tarixiy bilimlarning shakllanishi, rivojlanishi va uni o'rganish uslublarini o'rganuvchi fan. Har bir tarixiy davr o'ziga xos yondashuv, mafkuraviy cheklov va talqinlar asosida tarixni yozadi. Shu jumladan, Sovet davri tarixshunosligi ham o'z davrining mafkurasi va siyosiy talablaridan kelib chiqqan holda shakllangan bo'lib, tarixiy haqiqatni emas, balki ko'proq siyosiy buyurtmalarni aks ettirgan. Oktyabr to'ntarishidan keyingi dastlabki ikki o'n yillikda Rossiya tomonidan O'rta Osiyoning istilo qilinishi masalasi bo'sh tadqiq etilgan bo'lsa-da, bu mavzuning ayrim masalalari yuzasilan vaqtiga bilan turli asarlar chop etib turildi. "1927-yilda Toshkentda S.P.Pokrovskiyning Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi siyosiy aloqalarga doir masalalar yoritilgan asari chop etildi, inqilobdan avvalgi Turkistonning ijtimoiy hayoti A.A.Semenov, P.Galuzo, V.Lavrentbev asarlarida ifoda topdi."¹

Tarixiy jarayonni o'rganishga sinfiy yondashuvning sun'iy ravishda tiqishtirilishi natijasida o'lkadagi inqilobi harakatni mahalliy mehnatkashlar ommasining Rossiya proletar harakatiga qo'shilishi, deb zo'rma-zo'raki talqin qilishiga e'tibor kuchaytirilgan edi. Shu tariqa "O'rta Osiyoda inqilob" degan ikkita to'plam va S.Muraveyskiy hamda Ye.Fedorovning O'rta Osiyodagi inqilobi va milliy ozodlik harakatiga doir asarlari paydo bo'ldi.

¹ S.A.Toshtemirov "Tarixshunoslik" Toshkent-2022. 267-b

1920-1930 - yillarda e'lon qilingan asarlar hajm jihatidan kichik - kichik bo'lib, bu daliliy materiallardan yetarli foydalanilmagani tufayli yuzaga kelgan edi. Voqealarni izohlashda, shuningdek, Chor qo'shinlarining Turkistoniga bir muncha oson kirib kelishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar yetarli e'tiborga olinmas, ayrim O'rta Osiyo o'lkalari nima sababdan Rossiyadan madad kutib, uning tarkibiga "ixtiyoriy qo'shilganligi" sabablariga aniqlik kiritilmay o'tib ketilar edi. Keyinroq tasdiq etilishicha esa, Rossiya tarkibiga rus bo'lmanan xalqlarning kiritilishi natijasidagi "shak-shubhasiz ijobiy holatlar" ham biron bir dalil-isbotsiz inkor etilgan, Rossiya va Angliya raqobati tufayli bu mintaqadagi xalgaro ahvol mavzui ham yetarlicha talqin qilinmagan. Keyinchalik ham tarixchilarning adashishlarini "M.N.Pokrovs-kiy maktabi"ning Rossiya o'z hududini chet o'lklalar hisobiga kengaytirishi "mutlaqo zulm" deb baholanishi sababli yuz bergan, degan mulohazalarning keti uzilgani yo'q. "Urushdan oldingi davr va hatto 1941-yilda ham XIX-XX asrlardagi O'rta Osiyoga daxldor uslubiyat jihatidan bo'sh tadqiqotlarni nashr etish davom etaverdi. Hatto shu davrning jiddiy tadqiqotchilari P.G.Galuzo, V.Lavreitsev, N.N.Yakovlev, Ye.G.Fedoroy kabilar ham Turkistonning bosib olinishi muammosini va xalqlar hayotidagi ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarni bir tomonlama, Chorizm tomonidan chet o'lkalarning istilo etilishi va bu hodisaning go'yoki ijobiy jihatlarini hisobga olish asosida yoritdilar."²

Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishi Rossiya imperiyasining tashqi siyosati masalalariga, uning boshqa davlatlar bilan, jumladan Sharq mamlakatlari bilan munosabatiga bevosita aloqador ekanligini hisobga olinadigan bo'lsa, ikkinchi jahon urushiga qadar bu masalalar chorizmning Yevropaga, hatto Yaqin Sharqqa oid siyosatiga nisbatan ancha kam tadqiq etilganini ko'rish mumkin. Sovet tarixnavisligidagi bu bo'shliqni 1939-1940 yillardayoq AL.Popov ko'rsatib o'tgan edi. 1920-yillardan boshlab Sovet Ittifoqida tarixshunoslik marksistik-leninchilik mafkurasi asosida rivojiana boshladi. Bu davrda asosan, tarixga sinfiy yondashuv asos

² Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000.

qilib olindi, tarixiy jarayonlar kommunistik g‘oyalarni asoslash uchun vosita sifatida qaraldi, sotsialistik taraqqiyot tarixning eng yuqori bosqichi sifatida talqin qilindi.

Tarixshunoslik faniga ideologik senzura joriy etildi. O‘zbekistonda ham tarixiy meroslar, qadimiy shaxslar va davrlar yangicha – sovet mafkurasiga mos holda talqin qilindi. Sovet tarixshunosligi quyidagi xususiyatlarga bo‘lib o‘rganish qulay edi:

1. Mafkuraviy yondashuv

Tarix faqatgina sinfiy kurash nuqtai nazaridan yoritildi. Qadimgi yoki o‘rta asr tarixidagi voqealar zamonaviy sinfiy kurashga bog‘lab tushuntirildi.

2. Tarixiy shaxslarning biryoqlama baholanishi

Sovet mafkurasiga mos kelgan shaxslar ulug‘lanar, mos kelmaganlar “reaksioner”, “xalq dushmani” deb e’lon qilinar edi.

3. Tarixiy manbalarining tanlab ishlatalishi

Faqat sovet mafkurasiga mos keladigan manbalar nashr etilar, boshqalar esa yashirilgan yoki yo‘q qilingan.

4. Milliy tarixga e’tiborsizlik

Sovet tarixshunosligi ko‘proq Rossiya imperiyasi va SSSR tarixini markazga qo‘yar, mustamlaka davri yutuq sifatida talqin qilinar edi. Tarixchilar ko‘pincha siyosiy topshiriqlar asosida yozishar edi. Tarix fanidan yozilgan asarlar “to‘g‘ri mafkuraviy yo‘nalishda” bo‘lishi kerak edi. Aks holda, tarixchi tanqidga uchrashi yoki jazoga tortilishi mumkin edi. 1930–1950-yillarni asosan, “O‘zbek tarixchiligi yo‘q qilinishi” davri deb baholasak xato bo‘lmaydi. Bundan tashqari, o‘plab milliy tarixchilar asarlari e’tibordan chetda qoldirilgan. 1960–1980-yillar Tarixshunoslikda biroz yumshash kuzatildi, biroq marksistik asos saqlanib qoldi. Sovet davri tarixshunosligi – bu tarixni siyosatga bo‘ysundirilgan, mafkuraviy doirada ifodalangan tarixiy qarashlar tizimi edi. U tarixiy haqiqatni emas, balki mavjud siyosiy tuzum manfaatlarini ifodaladi. Mustaqillik davrida tarixshunoslik sohasida erkinlik, tanqidiy fikr va manba boyligiga asoslangan ilmiy yondashuvlar shakllandi. Bu esa tarixiy haqiqatni tiklash yo‘lida muhim qadamlardan biridir. Sovet davri tarixshunosligi o‘z davrining mafkuraviy va siyosiy talablari asosida shakllangan bo‘lib, unda tarixga

marksistik-leninchilik nuqtayi nazaridan yondashish ustuvor edi. Tarixiy voqealar, shaxslar va jarayonlar sovet mafkurasiga moslashtirilib talqin qilindi, ayrim mavzular esa to‘liq inkor etildi yoki buzib ko‘rsatildi. Bu holat tarixiy haqiqatni tahlil qilishda jiddiy to‘sinqlarga sabab bo‘ldi.

Xulosa

Bu davri tarixshunosligi o‘ziga xos murakkab va ziddiyatli tarixiy bosqich bo‘lib, u nafaqat ilmiy yondashuv, balki mafkuraviy nazorat va siyosiy bosim bilan yo‘g‘rilgan edi. Masalan, davrlashtirish, arxiv hujjatlari bilan ishslash, tarixiy manbalarni tizimlashtirish borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Shu bilan birga, ko‘plab mavzular, ayniqsa, milliy tarix, diniy qadriyatlar va Sovet tuzumiga mos kelmaydigan tarixiy shaxslar taqiqlangan yoki noto‘g‘ri talqin qilingan. Shu bilan birga, Sovet tarixshunosligi ilmiy maktab sifatida ham muayyan rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan, arxiv manbalar bilan ishslash, tizimli yondashuv, davrlashtirish kabi uslublarni shakllantirgan. Ammo bu yutuqlar ko‘pincha mafkuraviy cheklovlar soyasida qolib ketgan. Bugungi kunda mustaqil tarixshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri — sovet tarixshunosligening metodologik merosini tanqidiy tahlil qilish, mafkuraviy talqinlardan holi, haqqoniy va xilma-xil manbalarga asoslangan ob’ektiv tarixiy qarashlarni shakllantirishdir. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan izlanishlar milliy tarixni qayta tiklash, tarixiy xotirani to‘g‘ri shakllantirish hamda ilmiy mustaqillikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Абдуллаев К.А. Культ хаомы в древней Центральной Азии. -Самарканд.: Международны Институт Центральноазиатских ис-следований. 2009.
2. Алексеенков П. 1916 йилда булган Хива кузголони. - Т.: Уз-давнашр, 1931.
3. Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000.
4. Аскаров А.А. Узбек халкининг этногенези ва этник тарихи. - Тошкент: Университет, 2007.
5. Баёний Мухаммад Юсуф. Шажарайи Хоразмшохий // Мерос туплами. - Т.: Камалак, 1991.

5. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. - Л., 1927.
6. Бойназаров Ф.Йрта Осиёнинг антик даври. Т., уқитувчи 1991.
7. Бобобеков Х. ва бошк. Узбекистон тарихи. Кискача малу-мотнома. -Т.: Шарқ, 2000.
8. S.A.Toshtemirov “Tarixshunoslik” Toshkent-2022. 267-b